O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI BA’ZI IBORALARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQIGA OID MULOHAZALAR

Soliyeva Gulshanoy
Ergasheva Dilnavoxon
Farg’ona davlat universiteti talabalari
Ilmiy rahbar: **Gafurova Surayyo Ulug’bekovna**
Filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan chog‘ishtirma frazeologiya masalalariga bag‘ishlangan. O’zbek va ingliz tillardagi iboralarning lingvistik xususiyatlari, ularning umumiy va farqli tomonlari chog‘ishtirma usulda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — bir-biridan genetik va tuzulish jihatidan farq qiluvchi o‘zbek va ingliz tillaridagi iboralarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini lingvokulturologik hamda semantik tamoyillar asosida yoritib berishdan iborat. Ushbu tahlilda iboralarning madaniy konteksti ham chuqurroq yoritiladi, chunki ular nafaqat tilning boyligini, balki xalqning dunyoqarashi va turmush tarzini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar

Frazeologizmlar, chog‘ishtirma usul, umumiy xususiyatlar, farqli jihatlar, barqarorlik, obrazlilik, lingvokulturologiya.

Tilning qiymati uning lug‘at tarkibi, sinonimlar va tasviriy ifodalarga boyligiga qarab belgilanadi. Leksik qatlamning salmog‘ini oshirishda iboralar ham muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda frazeologizmlar tilning eng boy va obrazli qatlamini tashkil etadi. Iboralar har bir xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan “ko‘zgu” hisoblanadi. O’zbek va ingliz tillari bir-biridan butunlay boshqa til oilalarga (turkiy va hind-yevropa) mansub bo‘lsa-da, insoniyatning umumiy hayotiy tajribasi, dunyo va tabiat hodisalariga nisbatan qarashlari tufayli bu tillardagi iboralarda hayratlanarli o‘xshashliklar va shu bilan birga, tub farqlar mavjud. Bu o‘xshashliklar inson psixologiyasining universal xususiyatlaridan kelib chiqsa, farqlar esa har bir millatning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy muhitiga bog‘liq.

Dunyodagi deyarli barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar — hayot, o‘lim, vaqt, do‘stlik — tillarda o‘xshash metaforalarni keltirib chiqaradi. Iboralarning umumiy jihatlaridan biri bu ko‘chma ma’nolilikdir. Har ikkala tilda iboralar ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Ingliz tilida: *“break the ice”* (suhbatni boshlamoq). O‘zbek tilida: *“muzni eritmoq”* (suhbatni jonlantirmoq). Bunda har ikkala ibora ham o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, suhbatni ochishni ifodalaydi.

“Piece of cake” (pirog bo‘lagi) ingliz tilidagi bu ibora juda oson ish ma’nosini bildiradi. Aynan shirinlikning biror bo‘lagiga ishora qilmaydi, balki ishning soddaligini ta’kidlaydi[1]. O‘zbek tilidagi ekvivalenti esa *“xamirdan qil sug‘urganday”* bo‘lib, bu ham osonlikni tasvirlaydi. Yana bir umumiy xususiyatlaridan biri barqarorlikdir. Frazeologizmlar tarkibi oson o‘zgarmaydi: *“Kick the bucket”* (jon bermoq), *“at one’s wits end”* (nima qilishini bilmay qolmoq), *“barmog‘ini tishlamoq”*. So‘zlar o‘zgarsa ma’no buziladi. Obrazlilik va ekspressivlik ham umumiy jihatlariga xos. Misol uchun, *“heart of stone”* —

[1] A. Yusupov. Inglizcha-o‘zbekcha idiomalar lug‘ati. – Toshkent, 2014.

"tosh yurak", bunda predmetning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qiyoslash barcha xalqlar dunyoni birdek idrok etishini ko'rsatadi[2].

Lend an ear — quloq solmoq.

A leopard can't change its spots — bukrini go'r tuzatadi.

A storm in a teacup — pashshadan fil yasamoq.

Ushbu iboralar so'zma-so'z tarjima qilinsa ma'nosi butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Lekin ko'chma ma'noda qo'llanganda tarjima aynan mos tushmasa ham, ekvivalent sifatida qabul qilish mumkin. Chunki ulardan anglashilayotgan ma'no deyarli bir xil bo'lib, ular insoniyatning umumiy hayotiy tajribasini aks ettiradi.

Iboralarning farqli jihatlari xalqning turmush tarzi, diniy e'tiqodi va yashash muhiti bilan bog'liq. Ularda qiyoslanayotgan narsa-hodisalar xalqning ijtimoiy hayoti, atrof-muhit, tabiatiga hamohang tarzda tanlanadi. O'zbek iboralari ko'proq sharqona tafakkur, urf-odat va an'analarni ifodalaydi. Ingliz iboralari esa g'arb madaniyatiga xos qarashlar bilan bog'liq. O'zbek xalqi azaldan chorva va dehqonchilik bilan shug'ullangani bois iboralarda ot, tuya, qo'y, ayiq, palov obrazlari ko'p uchraydi. Inglizlarda esa bu o'rinni ko'proq dengizchilik, ovchilik va sport atamalari egallaydi. Masalan, o'zbek tilida: *"do'ppisi osmonga otmoq"* (xursand bo'lmoq) — do'ppi milliy bosh kiyimimiz bo'lgani sabab, ingliz tilida bunday predmetdan foydalanilgan holat uchramaydi. Bu iboraga muqobil tarzda *"on cloud nine"* (juda baxtli bo'lmoq) iborasini olish mumkin. *"When pigs fly"* (cho'chqalar uchganda) = "tuyaning dumi yerga tekkanda"[3]. Bunda ham ko'rishimiz mumkinki, cho'chqa va tuya hayvonlarining tanlanishi chorvachilik faoliyatiga bog'liq. Qolaversa, "almisoqdan qolgan", "boshini ikkita qilmoq" kabi iboralar o'zbek tiliga xos bo'lib, ingliz tilida uchramaydi. "Boshini ikkita qilmoq" iborasini ingliz tilida shunchaki "to get someone married" deb tushuntirish mumkin.

Idrok etishdagi farqlarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin: bir xil ma'noni ifodalash uchun ikki xil mutlaqo boshqa obrazlardan foydalanish. Buni yuqoridagi *cho'chqa* va *tuya* misolida ham ko'rish mumkin. Qolaversa, inglizlarda: "it's raining cats and dogs" (mushuk va it yog'yapti), o'zbeklarda: *"cheleklab yomg'ir yog'yapti"* kabi. Yana bir yorqin misol — o'zbek tilidagi *"paxta qo'ymoq"* iborasi. Bu ibora kimnidir iltifot qilib, maqtash orqali unga yaxshi ta'sir qilish, ya'ni "*yog' surtish*" ma'nosini bildiradi. O'zbekistonning paxta yetishtirishga asoslangan qishloq xo'jaligi madaniyatida paxtaning yumshoqligi va qulayligi obraz sifatida tanlangan. Ingliz tilida esa bu ma'noni "*butter somebody up"* iborasi ifodalaydi — bu yerda *"yog' surtmoq*" (butter) so'zma-so'z ma'noda nonni yog'lash orqali odamni "yumshatish" tasvirlanadi. Har ikkala ibora ham bir xil ma'noni — kimnidir maqtash orqali o'z maqsadini amalga oshirishni bildiradi, ammo obrazlar tubdan farq qiladi: paxta sharqona dehqonchilik hayotini, butter esa g'arbning ovqatlanish madaniyatini aks ettiradi. Bu misol iboralarning milliy madaniyatga qanchalik chuqur bog'liqligini yana bir bor isbotlaydi.

Strukturaviy farqlarni kuzatar ekanmiz, ingliz iboralari ko'proq fe'l+to'ldiruvchi shaklida *"lose one's head*" shaklida, o'zbek tilida esa ko'proq so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'ladi. Yana bir farqli jihatlardan biri grammatik moslashuv: ingliz tilida frazeologizmlar grammatik o'zgarishga kam uchraydi. O'zbek tilida esa qo'shimchalar

[2] M. Qodirova. Ingliz-o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tarjima muammolari. – Theory and Analytical Aspects of Recent Research, 2022.

[3] Z. Xolmirzayeva. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari tahlili. – Ilmiy jurnal, 2026.

orqali o‘zgaradi. “*Spill the beans*” (sirni ochmoq/ochmoqda/ochadi) kabi[4]. Qo‘llanish chastotasi va uslubi jihatidan ingliz tilida iboralar kundalik nutqda juda faol ishlatiladi. O‘zbek tilida ham buning guvohi bo‘lishimiz mumkin, lekin ayrim frazeologizmlar ko‘proq badiiy nutqda uchraydi. Bu farqlar tillarning tuzilishiga va jamiyatdagi nutq madaniyatiga bog‘liq.

Iboralarni o‘rganish til boyligini oshirish bilan bir qatorda millatning qalbini va dunyoqarashini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizmlarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, inson psixologiyasi barcha xalqlarda o‘xshash, o‘zaro umumiy lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, tuyg‘ularni ifodalash usuli har bir millatning o‘z bosib o‘tgan yo‘liga bog‘liq va strukturasi va qo‘llanish doirasi jihatdan sezilarli farqlar mavjud. Chog‘ishtirma o‘rganish nafaqat tilni to‘liq idrok etishda, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar kelajakda tarjima va madaniyatlararo aloqalarni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Yusupov. Inglizcha-o‘zbekcha idiomalar lug‘ati. – Toshkent, 2014.
2. M. Qodirova. Ingliz-o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tarjima muammolari. – Theory and Analytical Aspects of Recent Research, 2022.
3. Z. Xolmirzayeva. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar va ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari tahlili. – Ilmiy jurnal, 2026.
4. Sh. Maqsudova. Frazeologik birliklarning ekvivalentlik masalasi: ingliz va o‘zbek tillaridagi xarakter iboralari timsolida. – International journal of Science and Technology, 2025.

[4] Sh. Maqsudova. Frazeologik birliklarning ekvivalentlik masalasi: ingliz va o‘zbek tillaridagi xarakter iboralari timsolida. – International journal of Science and Technology, 2025.